

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO`JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT  
UNIVERSITETI**

**FAN:**

**NASOS STANSİYALARIDAN  
FOYDALANISH**

**MAVZU  
05**

Nasos stansiya uskuna va  
jixozlarining ishonchliligi xamda  
xolatlari



**ERGASHEV RUSTAM  
RAHIMOVICH**



Nasos stansiyalarini va  
gidroelektrostansiyalar  
kafedrasini prof.,t.f.d.  
.



## **Reja:**

- ✖ 1.Nasos stansiyasi uskuna va jihozlarining ishonchliligi.
- ✖ 2.Gidromexanik jihozlar ishonchliligining yakka va kompleks ko‘rsatkichlari.
- ✖ 3.Gidromexanik jihozlarning fizik xususiyatlari.
- ✖ 4.Gidromexanik jihozlarning ishlash qobiliyati, buzilishi va ishonchliligining kamayish sabablari.
- 5.Jihozlar texnik xolatini baholash mezonlari.



## **✖ Mavzuning dolzarbligi:**

- ✖ Nasos agregatlarining ishonchlilik ko'rsatkichlarini ta'minlash qishloq xo'jalik ekinlari uchun kerak bo'ladigan suvni reja bo'yicha yetkazib berilishini ta'minlanadi.

- **Ishonchlilik** — nasos stansiyasining (bino inshooat, uskuna va jihozlari) suv uzatish jarayonida belgilangan ish ko‘rsatkichlari qiymatlarini saqlagan holda bajarish xususiyati.
- Ishonchlilik mummosi quyidagi bosqichlarda namoyon bo‘ladi:
  - Loyihalash davrida;
  - Ishlab chiqarish tayyorlash davrida;
  - Foydalanish (ishlatish) davrida.


- **Ishonchlilik** kompleks xususiyat bo‘lib, nasos stansiyasining jihoz va uskunalarining vazifasiga va undan foydalanish sharoitiga qarab:
- buzilmasdan ishlash;
- chidamlilik;
- ta’mirlashga yaroqlilik;
- saqlanuvchanlik o‘z ichiga oladi.

- **Buzilmasdan ishlash** — suv uzatish jarayonida nasos stansiyasining jihozlari va uskunalarini ishlash qobiliyatini majburiy to‘xtashlarsiz saqlash xususiyatidir.
- **Ishlamay qolish** - ishlash qobiliyatining buzilishidan iborat bo‘lgan hodisa tushuniladi.

- ✖ **Chidamlilik** — jihoz, uskunalar va tutashmalarning o‘zining ishlash qobiliyatini oxirgi holatgacha saqlash xususiyati. Jihoz va uskunaning oxirgi holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi, samaradorligining pasayishi yoki xavfsizlik talablarining buzilishi bilan belgilanadi va texnik hujjatlarda izohlanadi.
- ✖ Chidamlilik ko‘rsatkichlariga uskuna va jihozlardan foydalanila boshlangandan to hisobdan chiqarilgunga qadar bo‘lgan xizmat muddati yoki resursi ( soatlarda yoki chiqarilgan suvning hajmi ) kiradi.

✖ **Ta'mirlashga yaroqlilik** — nasos stansiya qurilma, uskuna va jihozlarning texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'li bilan ishlamay qolishi hamda nuqsonlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligidan iborat bo'lgan xususiyati.

- ✖ **Saqlanuvchanlik** — nasos stansiya va uning jihozlarini o‘z ish ko‘rsatkichlarini saqlashi va saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan keyin ham texnik hujjatlarda ko‘rsatilgan qiymatlarda saqlanib turish xususiyati.
- ✖ **Bajargan ishi** — nasos stansiya va uning jihozlarini ishlatish va foydalanish davomiyligi . (to‘xtovsiz va mavsumiy )
- ✖ **Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi** — nasos stansiya qurilma, jihozlarining ishlamay qolishlar oralig‘ida bajargan ishining o‘rtacha qiymati.



### NASOS STANSIYA TIZIMINING SXEMATIK KO'RINISHI.

**1- SUV OLİSH KANALI;**

**2-OQIZIQLARNI TUTIB QOLISH VA TOZALASH TIZIMI;**

**3-AVANKAMERA;**

**4- BOSIM QUVURLARI; 5-TURBINA; 6-SUV TASHLASH QUVURLARI.**

# NASOS STANSIYALARDAN FOYDALANISH DAVRIDA GIDROMEXANIK JIHOZLARINING BUZILMASDAN VA BUZILISH EHTIMOLLIKLANING YIG'INDISI BIRGA TENG.

- ✖  $P(t) + Q(t) = 1$
- ✖  $R(t)$  - buzilmasdan ishslash ehtimolligi;
- ✖  $Q(t)$ - buzilish ehtimolligi.
- ✖ NSning ishslash sharoitlarini hisobga oluvchi koeffitsient  $K_i$  inshootdan foydalanish darajasiga bog'liq ( $F$ ) funksiyaga, jihozning yejilish darajasini baholovchi ( $Ye$ ) xamda gidravlik ( $G$ ), mexanik ( $M$ ) va energetik ( $E$ ) ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir.

- ✖ Nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilish xizmati tashkiliy-texnika tadbirlarning keng ko‘lамини о‘з ichiga oladi, lekin ularning barchasi, asosan ushbu uchta asosiy vazifani xal qilishga qaratiladi:
- ✖ Berilayotgan elektr energiyasidan foydalananib, ta’minlash reja grafigiga muvofiq uzluksiz va avariyalarsiz suvni yuqoriga uzatib berish;
- ✖ NS jihozlarning tejamli ishlashini ta’minlash;
- ✖ Ekspluatatsiya xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xavfsiz ishlash shartlariga rioya qilish.

Konstruktsyani takomillashtirish

Chidamli materyal va detallardan foydalanish

Taylorlash texnologiyasini takomilashtirish

Tamirlash ishlarida ilg'or va zamonaviy texnalogiyisini

Texnik holatini o'z vaqtida nazorat qilish va yaxshilash

Tamirlanishga yaroqlilik

Zaxira materiyalarini kerakli hajmini aniqlash

Chokuvchan zamin gruntlarini mustahkamlash va xossalarini yaxshilash

Inshoatning ishonchlilik ko'rsatkichlarini va uning zayif joylarini aniqlab borish

Qurulish mantaj va tamirlash ishlari sifatini nazorat qilish va oshirish

Ishlab chiqarish qurilish mantaj va foydalanuvchi tashkilotlar

Ishlab chiqarishga foydalanuvchilar tomonidan tegishli xulosa va taklif berib borish

Ishlab chiqarish, qurilish mantaj va foydalanuvchi tashkilotlarning sohadagi ilmiy tatqiqot fan va texnika hamda o'quv muassalari o'rtaсидаги integratsiyani

Foydalanish xizmati ma'suliyatini oshirish

Noqulay tabiyat hodisalariga avvaldan tayyor turish(foydalanish xizmati darajasi)

**NASOS STANSIYAGA QO‘YILGAN VAZIFALARNI BAJARISHI  
UCHUN QUYIDAGI TALABLARNI BAJARILISHINI TA’MINLASH  
LOZIM.**

- ✖ Nasos stansiyasidagi inshootlar va jihozlarning texnik holati ta’minlanishi;
- ✖ extiyot qismlar va materiallar bilan ta’minlanishi;
- ✖ jihozlarni puxta avtomatik boshqarish va muxofaza qilish qurilmalarining mavjudligi;
- ✖ malakali xodimlarning mavjudligi.

❖ ***Nosozlik*** —nasos stansiyasi jihozlari va uskunalariga texnik hujjatlarda qo‘yilgan texnik talablarning barchasiga mos kelib faqat bittasiga bo‘lsa xam mos kelmaydigan xolatdir.

❖ ***Ishlamay qolish*** —uskuna va jihozlarning qobiliyati buzilishidan iborat bo‘lgan hodisa. Ishlamay qolish mezonlari me’yori belgilovchi — texnik hujjatlarda keltiriladi.

## ***FOYDALANISH DAVRIDAGI ISHLAMAY QOLISHLAR:***

---

- ✖ To'satdan;
- ✖ Asta-sekin;
- ✖ O'zgaruvchan;
- ✖ Muntazam;
- ✖ Qisman;
- ✖ Butkul ishlamay qolishlar bo'ladi.

✖ **To'satdan ishlamay qolish** – to'satdan (birdaniga) nasos agregatlarining bir yoki bir nechta ko'rsatkichlarini o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. To'satdan ishlamay qolish aniq sabablar oqibatida (detallarning charchashdan yemirilish, sinishi va boshqa) paydo bo'ladi. Bu turdagi nosozlikni oldini olish yoki oldindan aniqlash imkonи mavjud emas, chunki ishlamay qolish foydalanish nuqtai nazaridan qaraganda to'satdan paydo bo'ladi.

## **ASTA-SEKIN ISHLAMAY QOLISH**

---

- ✖ – nasos agregatlari va jihozlarning bir yoki bir nechta parametrlarining asta-sekin o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu ishlamay qolishning asosiy sababi bu tabiiy eskirish va yejilish hisoblanadi. Ushbu ishlamay qolishni oldindan aniqlash va jarayonni sekinlashtirish imkoni mavjud.

## O'ZGARUVCHAN XARAKTERLI ISHLAMAY QOLISH

---

- ✖ – bir xarakterli ishlamay qolishning ko‘p marta paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu ishlamay qolish o‘z-o‘zini bartaraf etish xususiyatiga ega bo‘lib, qandaydir vaqt bir parametrning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan esa ushbu ishlamay qolish o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘ladi.


## O‘ZARO BOG‘LIKЛИGI BO‘YICHA ISHLAMAY QOLISHLAR

- ✖ o‘zaro bog‘liq ;
- ✖ o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan turlarga bo‘linadi.
- ✖ turli kamchiliklar, foydalanish qoidalari va me’yorlarining buzilishi, turli xil shikastlanishlar, shuningdek tabiiy eyilish va eskirish jarayonlari ishlamay qolishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

- ✖ *O‘zaro bog‘liq bo‘lмаган исхламай колиши* – element ish qobiliyatining tizimning boshqa element holatiga bog‘liq bo‘lмаган holda yo‘qolishi natijasida yuzaga keladi.
- ✖ *O‘zaro bog‘liq исхламай колиши* – tizimning biron bir elementi ish qobiliyatining yo‘qolishi boshqa element ish qobiliyatining yo‘qolishiga olib kelishi natijasida paydo bo‘ladi.

- ❖ ***Xizmat muddati*** — Nasos stansiyasi va uning jihozlarini ishlatila boshlanganidan yoki butkul ta'mirlanganidan to texnik hujjatlarda, izohlangan oxirgi holatga kelguncha yoki hisobdan chiqarilgunga qadar kalendar ishlash davomiyligi.
- ❖ ***Resurs*** — Nasos stansiyasi va uning jihozlarini texnik hujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajargan ishi yoki ishlagan vaqt.
- ❖ Birinchi ta'mirlashgacha bo'lgan resurs, ta'mirlashlararo resurs, belgilangan resurs va boshqa resurslar farq qilinadi. Ta'mirlashlararo resurs birinchi ta'mirlashgacha bo'lgan resursdan kamroq bo'ladi.
- ❖ ***Ta'mirlashlararo xizmat muddati yoki ta'mirlashlararo resurs*** — ta'mirlangan uskuna va jihozlarning texnik hujjatlarida izohlangan oxirgi holat yuzaga kelguncha yoki navbatdagi ta'mirlashgacha ishlatilishi


OKSIDLANISH NATIJASIDA YEYILISH YUZALARING BIR  
BIRIGA NISBATAN TEZLIGII 1,5-7,0 M/S BA'ZI BIR  
HOLATLARDA 20 M/S GACHA, BO'LIB UALAR ORASIDA  
MOYlash MAHSULOTLARI BO'L MAGAN HOLATDA  
YUZAGA KELADI.



# OKSIDLANISH NATIJASIDA YEYILISH



**YEMIRILIB YEYLISH -YUKLAMANING TA'SIRI TEZ  
O'ZGARADIGAN VA KATTA BOSIM OSTIDA  
HARAKATLANAYOTGAN YUZALARDA SODIR  
BO'LADI.**



# KAVITATSIYA NATIJASIDA NASOS YUZASINING O'YILIB YEYILISHI




# KAVITATSION GIDROABRAZIV YEYILISH TA'SIRIDA ISHDAN CHIQQAN ISHCHI G'ILDIRAK.



# NASOS VALINING SINGAN HOLATI.



# **GIDROZARB NATIJASIDA BOSIMLI QUVURLARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR**



# KUCH UZATISH TIZIMIDA CHARCHAB YEYILISH



## NASOS AGREGATLARINI ISHDAN CHIQISHIGA OLIB KELUVCHI SABABLAR:

- ✖ Ishlab chiqarish,yig'ish va joyiga o'rnatish vaqtida qilingan xatoliklar;
- ✖ Foydalanish davrida kelib chiqadigan nosozliklar;
- ✖ Boshqaruv tizimidagi nosozliklar;
- ✖ Noto'g'ri ish tartiblarida ishlatish;
- ✖ Energetika tizimidagi nosozliklar;
- ✖ Gidravlik tizimdagi nosozliklar.

# MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN

## MAVZULAR:

- ✖ 1. Gidromexanik jihoz va qurilmalrning ishonchliliginini ta‘minlash.
- ✖ 2.Qismlarni yejilishini kamaytirish bo'yicha zamonaviy texnik yechimlar.

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO`JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT  
UNIVERSITETI**

**E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!**



ERGASHEV RUSTAM  
RAHIMOVICH



Nasos stansiyalari va  
gidroelektrostansiylar  
kafedrasи prof.,t.f.d.



📞 71 237 19 57  
+ 998 99 875 74 51  
[erustamrah@umail.uz](mailto:erustamrah@umail.uz)



Rustam Ergashev